



OLIIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNING IJODIY FIKRLASH QOBILIYATINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

PhD Musaxanova Gulnora

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0000-0003-0268-0292

gulnaramusahanova02@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada mustaqil ta'lim jarayonida talabalarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan. Shuningdek, bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishda tizimli yondashuvni ta'minlash, ta'lim-tarbiya jarayonini kompetentli yondashuv asosida tashkil etish zarurligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: ta'limni raqamlashtirish, mustaqil ta'lim, kompetentlik, kasbiy kompetentlik, kompetensiya, kreativ kompetensiyalar, kreativlik, Hard skills, Soft skills.

ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ В ВЫСШИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ

PhD Мусаханова Гулнора

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В статье рассматриваются механизмы формирования профессиональной компетентности в рамках образовательного процесса на примере развития навыков самостоятельного обучения. Особое внимание уделено обучению развития креативного мышления будущих специалистов в контексте процесса усвоения знаний, а также раскрыты механизмы инновационного потенциала.

Ключевые слова: цифровизация образования, самостоятельное обучение, компетентность, профессиональная компетентность, компетенция, креативный компетенции, креативность, Hard skills, Soft skills.

WAYS TO IMPROVE STUDENTS' CREATIVE THINKING ABILITIES IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

PhD Musakhanova Gulnora

Tashkent State University of Economics

Abstract. The article discusses the mechanisms of formation of professional competence within the framework of the educational process on the example of the development of self-study skills. Particular attention is paid to training the development of the creative mind of future specialists in the context of the process of assimilation of knowledge, and the mechanisms of innovative potential are also disclosed.

Keywords: digitization of education, independent learning, competence, professional competence, creative competencies, creativity, Hard skills, Soft skills.

Kirish.

Globallashuv, raqamli iqtisodiyot va innovasion taraqqiyot sharoitida jamiyatning barqaror rivojlanishi yuqori malakali, mustaqil fikrlay oladigan va kreativ yondashuvga ega mutaxassislarni talab etmoqda. Shu bois oliy ta'lim muassasalari oldida nafaqat bilim berish, balki talabalarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, muammolarga noan'anaviy yechim topa olish salohiyatini shakllantirish vazifasi ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy mehnat bozorida raqobatbardoshlik kreativ tafakkur, innovasion g'oyalar ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etish ko'nikmalari bilan belgilanadi. An'anaviy ta'lim modellari esa ko'p hollarda reproduktiv bilim berishga yo'naltirilgan bo'lib, bu holat talabalarning ijodiy salohiyatini to'liq namoyon etishiga to'sqinlik qiladi. Shu nuqtai nazardan, oliy ta'lim muassasalarida talabalarning ijodiy fikrlash qobiliyatini takomillashtirishning samarali pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqish, innovasion ta'lim texnologiyalarini joriy etish hamda kompetentli yondashuv asosida o'quv jarayonini tashkil etish ilmiy va amaliy jihatdan muhim vazifa hisoblanadi.

Iqtisodiyotga raqamli texnologiyalarning jadal sur'atlarda kirib kelishi, jamiyatda ijtimoiy muammolar ko'lamining kengayishi hamda ularga tezkor va samarali yechimlar topish zarurati axborotlar hajmining keskin ortishiga olib kelmoqda. Mazkur jarayon insonlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablarni sifat jihatidan yangilashni taqozo etmoqda. Iqtisodiyot tarmoqlarining kreativ innovasiyalar bilan boyitilishi korxona va tashkilotlar faoliyatini an'anaviy, cheklangan muhitdan erkin va ijodiy muhitga bosqichma-bosqich transformasiya qilmoqda. Bu esa mehnat faoliyatini kreativ yondashuv asosida tashkil etishni, ayniqsa, yosh mutaxassislarning ilg'or g'oya va tashabbuslariga alohida e'tibor qaratishni talab etmoqda. Shu bilan birga, so'nggi yillarda matbuot va pedagogik adabiyotlarda «soxta kompetensiya» tushunchasi keng qo'llanilmoqda. Ushbu holat, ayniqsa, turli manbalardan oson olinadigan ma'lumotlarni mexanik o'zlashtirish (plagiat, g'oyalarni o'zlashtirib olish va boshqalar)ning kasbiy kompetensiya sifatida baholanishi, bilimlarni chuqur va tizimli o'zlashtirish esa yuzaki axborot to'plash bilan almashtirilishida namoyon bo'lmoqda. Bunday tendensiyalar bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish jarayoniga ilmiy-metodik jihatdan yondashish zarurligini ko'rsatadi. Shu bois kompetentlikning nazariy va amaliy asoslarini puxta o'zlashtirish, ta'lim va tarbiya jarayonini kompetentli yondashuv asosida tizimli tashkil etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Ta'lim jarayonining metodlari va metodikasi, avvalo, ta'lim ishtirokchilarining kreativ salohiyatini ochib berishga keng imkoniyat yaratishi lozim. Bu, ayniqsa, auditoriyadan tashqari ta'lim beruvchining rahbarligida olib boriladigan mashg'ulotlar hamda ta'lim oluvchining individual mustaqil ishlarida namoyon bo'ladi. Mazkur jarayonda ta'lim mazmunini modifikatsiyalash, yangi pedagogik va raqamli texnologiyalarni joriy etish, innovasion yondashuvlarni izlash zarurligi alohida ahamiyat kasb etadi. Kreativ va innovasion fikrlashga qodir mutaxassislarni shakllantirish zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqsadga erishish esa kreativ o'qitish metodikasini tizimli va maqsadli ravishda amalga oshirishni taqozo etadi. Bunda ta'lim oluvchilarga yangi bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirish, ular asosida yangilik yaratish, mavjud muammolarga nisbatan o'ziga xos va original yechimlar ishlab chiqish hamda ushbu yechimlarni amaliyotga samarali tatbiq etish imkoniyatlari yaratilishi lozim.

Adabiyotlar sharhi.

Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim beruvchilarning, ayniqsa pedagogik kadrlar tayyorlovchi mutaxassislarning pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari, ularning mohiyati va zaruriyati, shuningdek, professional va o'rta ta'lim tizimida turli fanlar bo'yicha bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik kompetentlik hamda kreativlikni shakllantirish masalalari yurtimiz pedagog olimlari tomonidan atroflicha tadqiq etilgan. Jumladan, pedagog olim Muslimov (2021) rahbarligidagi ilmiy maktab tomonidan pedagogik kompetentlik va pedagogik

kreativlikning nazariy-metodologik asoslari, shuningdek, bo'lajak professional o'qituvchilarning kasbiy mahorat va professionalligini shakllantirish masalalari yuzasidan qator ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. Muslimov (2021) o'z asarlarida "kompetentlik" va "kasbiy kompetentlik" tushunchalarining mazmun-mohiyatini ilmiy jihatdan asoslab berib, ularning tarkibiy komponentlari hamda amaliy ahamiyatini aniq ifodalab bergan.

Mohiyatiga ko'ra *kompetentlik* (ingl. "competence" – "qobiliyat") – faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish ma'nosini bildiradi.

"Kompetentlik" tushunchasi ta'lim sohasiga psixologik ilmiy izlanishlar natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik "noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik"ni anglatadi (Muslimov, Ishmuxamedov va boshq., 2021).

Kasbiy kompetentlik tushunchasi esa – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishi hisoblanadi.

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha umumlashtirilgan bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi (Muslimov va boshq., 2021).

Pedagogik kompetentlikning negizini, avvalo, kasbiy kompetentlik sifatlari tashkil etadi. Qator ilmiy tadqiqotlarda, xususan, A.K. Markova hamda B. Nazarova izlanishlarida pedagogga xos kasbiy kompetentlik, uning tarkibiy komponentlari va o'ziga xos xususiyatlari atroflicha o'rganilgan (Rahimov, 2019).

Pedagog-tadqiqotchi Rahimov (2019) ilmiy ishlarida pedagogik kompetentlikning ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini ta'minlashdagi o'rni va ahamiyatini asoslab bergan, shuningdek, kasbiy kompetentlikning mazmun-mohiyati va sifat ko'rsatkichlarini ilmiy jihatdan tahlil etgan. Shuningdek, pedagog olim Musurmonova (2020) ta'lim-tarbiya nazariyasiga bag'ishlangan darsligida pedagogik kompetentlik masalalarini yoritib, ayniqsa, o'qituvchilarning fanlar kesimida kompetentlikka ega bo'lishi zarurligini alohida ta'kidlab o'tgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur ishda mustaqil ta'lim jarayonida talabalarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish asoslari o'rganildi. Tadqiqot davomida tizimli yondashuv va tahlil kilish usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, pedagogik kompetentlik bilan bir qatorda pedagogik kreativlik tushunchasi ham pedagogik faoliyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy ta'lim tizimida ushbu ikki kategoriya o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Pedagogning kasbiy kompetentligi uning bilim darajasi va pedagogik salohiyati, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish darajasi, pedagogik mahorati, shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayonida yuzaga keladigan muammolarni samarali hal etish qobiliyati bilan belgilanadi. Pedagogik kreativlik esa pedagogning zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalar asosida o'quv jarayonini samarali tashkil etishi, fanlar kesimida nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlashi, o'qitishning yangi usul va vositalarini yaratishi, o'z kasbiy mahoratini muntazam ravishda takomillashtirib borishi, ilmiy izlanishlar olib borishi

hamda innovasion g'oyalarni ishlab chiqib, amaliyotga joriy etishga qodirligi bilan ifodalanadi. Shu jihatdan, pedagogik kompetentlik va kreativlikni uyg'un holda rivojlantirish zamonaviy pedagog faoliyatining ustuvor sharti hisoblanadi. "Kreativlik" tushunchasi va uning kasbiy faoliyatdagi o'rnini aniqlashda bir necha yondashuvlarni ko'rish mumkin. "Kreativlik" va "pedagogik kreativlik" tushunchalarini mohiyati, sifatlari, belgilari, shaxsda kreativlikni rivojlantirish omillari Muslimov (2021) maktabining tadqiqotchilari tomonidan ko'rsatib berilgan.

Mohiyatiga ko'ra, *kreativlik* (lot., ing. "create" – yaratish, "creative" yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayёрlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi *ijodiy qobiliyati* ma'nosini bildiradi. Shaxsning kreativligi uning dunyoqarashi, so'zlashishi, berayotgan fikrlari va qarashlarida, faoliyatida namoyon bo'ladi. Shuningdek kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi. Qolaversa, kreativlik har sohada qobiliyatlilik, zehni o'tkirlikni ko'rsatib beradi (Muslimov va boshq., 2021).

Kreativlik turli vaziyatlarda ta'lim va tarbiyaga oid masalalar yuzasidan qarorlarni qabul qilishda yaqqol namoyon bo'lib, u pedagogning ijodiy faolligini tavsiflaydi (Shuxratovna, 2025). Pedagogning ijodkorligi uning ta'limni tashkil etishga *ijodiy (kreativ) yondashuvida* aks etadi. Shuning uchun so'nggi yillarda ta'limda "pedagogik kreativlik" degan tushuncha ishlatilmoqda.

Pedagogik kreativlik – pedagogning an'anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta'lim va tarbiya jarayoni samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi yangi g'oyalarni yaratish, shuningdek mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo'lgan tayyorgaligini tavsiflovchi qobiliyatidir. Pedagogning kreativligi qay darajada ekanligi pedagogning *kreativlik potentsiali* nomli umumiy xususiyati sifatida aks etadi. Ushbu sifat shaxsning o'z-o'zini namoyon qilish layoqatiga egalikni va tayyorgarlikni ifodalaydi (Muslimov va boshqalar. 2015).

Rossiyalik pedagog olimlar Kashapova, Kiseleva hamda Ogorodova (2013) nazariy tuzilmalar va ilmiy g'oyalar bilan amaliy takliflar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tadqiq etish asosida pedagogning kasbiy kreativligini shakllantirish jarayonining nazariy-metodologik asoslarini ishlab chiqqanlar. Ular o'z izlanishlarida kasbiy kreativlikning sifat ko'rsatkichlari va funksional vazifalarini, uni shakllantirish mezonlari va darajalarini, shuningdek, kreativlikni samarali rivojlantirish tamoyillari, usullari hamda pedagogik shart-sharoitlarini ilmiy jihatdan asoslab berganlar. Bryakova (2019) pedagogning kreativ kompetensiyasi, talaba-filolog adabiy-ijodiy qobiliyatini rivojlantirish omili ekanligini, ayniqsa ta'limni raqamlashtirish davrida pedagogning kreativ kompetentligi – bu ta'limni yangi vektori ekanligini ko'rsatib bergan.

Hozirgi vaqtda "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalari hamda ularning tarkibiga kiruvchi komponentlarning mazmunini aniqlash, shuningdek, faoliyatning barcha sohalarida ularni shakllantirish va rivojlantirish masalalari bo'yicha keng ko'lamli tadqiqot materiallari to'plangan. Bu esa mazkur tushunchalarni klassifikasiyalash va tasniflash masalasiga alohida e'tibor qaratilishi lozimligini ko'rsatmoqda.

Kompetensiya, kompetentlik va kreativlik tushunchalariga bag'ishlangan adabiyotlar hamda ilmiy tadqiqotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, hozirgi vaqtda ta'lim tizimida ta'lim oluvchilarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Tadqiqotlar tahlili shuni ham ko'rsatadiki, talabalarning kreativ kompetensiyalarini shakllantirish masalasi pedagog tadqiqotchilar tomonidan turlicha talqin etilgan bo'lsa-da, zamonaviy ta'lim islohotlari doirasida bu yo'nalish yanada ustuvor ahamiyatga ega. Bugungi kunda ta'lim jarayoni ishtirokchilarining kreativ salohiyatini rivojlantirish, ayniqsa, ta'lim oluvchilarning mutaxassislik bilimlarini egallashida ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish uchun yangi faoliyat usullari va fikrlash modellarini ishlab chiqishni nazarda tutadigan pedagogik strategiya yoki yo'l xaritasini yaratish muhim vazifa hisoblanadi.

Talabaning kreativligi amalga oshiriladigan tadbirlar samaradorligiga yordam beradi. Bu kreativlik insonning nafaqat o'z ishini sifatli bajarishi, balki yangi imkoniyatlarni izlash va ularni hamyonbop narxlarda amalga oshirishiga qiziqishi bilan belgilanadi; u har qanday vaziyatda tezda nostandart qarorlarni qabul qilishga va har qanday faoliyatni tashkil etish va bajarishga ko'proq kuch va ishtiyoq bilan yondashishga qodir. Shuni ta'kidlash kerakki, kreativlik nafaqat amalga oshiriladigan faoliyatga, balki talabalarning o'z shaxsiyatlarini rivojlanishiga ham ta'sir qiladi. Kreativlik o'zini-o'zi anglash, takomillashtirish va kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirib, karyera bosqichlaridan ko'tarilishga olib keladi.

Demak, talabaning kreativ kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, uning kasbiy-ijodiy faoliyati shunchalik samarali bo'ladi. Talabalarda kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish metodologiyasini yaratish uchun avvalo "kompetensiya" va "kreativ kompetensiya" tushunchalariga va ularning mazmun- mohiyatiga aniqlik kiritish lozim.

Kompetensiya (lot. "compyetentia") tushunchasi – ega bo'lgan, biladigan, xabardor bo'lgan, munosib, loyiq kabi ma'nolarni bildiradi. Ushbu tushunchaning mazmun-mohiyati esa biror soha bo'yicha har tomonlama chuqur bilim va qobiliyatga ega bo'lgani uchun ham asosli fikr yuritadigan, samarali faoliyat olib boradigan *shaxsning sifatidir*. Biror sohada bunday sifatlarga ega bo'lgan shaxslar o'sha soha bo'yicha "*kompetentlilik*"ga ega hisoblanadi va ular o'z sohalarida islohotlar o'tkazishda yetakchilik qila oladilar.

Ta'lim sohasida "kompetensiya" ta'lim oluvchilar tomonidan egallangan bilim, malaka va ko'nikmalarni mustaqil ravishda shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish kabi *sifatlarni* bildiradi, "*kompetentlilik*" esa ushbu *sifatlarni egallaganlik darajasini* belgilash uchun qo'llaniladi. Kompetensiya va kompetentlilik tushunchalari bilim, malaka va ko'nikma tushunchalaridan kengroq ma'noni anglatadi. Chunki ular shaxsning yo'nalganligi (motivatsiyasi, milliy qadriyatlardan g'ururlanishi), uning eskirgan moddiy va ma'naviy qarashlarini yengish, muammolarni his etish, kuzatuvchanlik, mustaqil fikrlash, maqsadga intiluvchanlik kabi irodaviy sifatlarini qamrab oladi.

Bugungi kunda ta'lim sifatini aynan ta'lim ishtirokchilarining kompetentligini, ayniqsa ta'lim oluvchilarga zarur bo'lgan tayanch, kasbiy va maxsus kompetensiyalar kompleksini shakllantirish va rivojlantirish bilan, ya'ni ta'lim-tarbiya jarayonini *kompetentli yondashuv* asosida ta'minlash mumkin.

Shuning uchun dunyoning rivojlangan davlatlarida ta'lim mazmunini modernizatsiya qilishning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida ta'limda kompetentli yondashuvni joriy etish masalasiga asosiy e'tibor qaratilmoqda. Kompetentli yondashuvga asoslangan ta'lim talabalarda egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish layoqatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim hisoblanadi. Kompetensiya va kompetentlik tushunchalari ta'lim tizimi o'quv-tarbiya jarayoniga kompetentli yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlarini joriy etish masalasiga asosiy e'tibor qaratishda alohida o'rin egallagan (Лойко, 2015).

Muslimov (2015) rahbarligida tayyorlangan o'quv-uslubiy majmuada ta'lim sohasidagi nufuzli Xalqaro ekspertlar tomonidan ta'lim-tarbiya jarayoniga ikki xil: "Hard skills - (ingliz. "qattiq" malaka) kasbiy kompetensiyalar hamda "Soft skills" - (ingliz. "yumshoq", "moslashuvchan" malaka) universal (umumiy) kompetensiyalar joriy qilish taklifi keltirilgan.

Ma'no-mohiyatiga ko'ra, "Hard skills" – malaka darajasi aniqlanib, o'lchash mumkin bo'lgan bilim va ko'nikmalar majmui sifatida qabul qilinadi. Bunda kompyuterda matn terish, avtomobilni boshqarish, ingliz tilida so'zlashish, matematik bilimlar hamda kompyuter dasturlaridan foydalanish kabi konkret ko'nikmalar misol qilinadi. Aksincha, "Soft skills" aniq va umumiy o'lchov birligiga ega bo'lmagan, moslashuvchan va egiluvchan malakalar sifatida talqin qilinadi. Bu turga kreativlik, jamoada ishlash ko'nikmasi, hissiy barqarorlik, mas'uliyat, tashabbuskorlik va boshqa ijtimoiy-shaxsiy ko'nikmalar kiradi.

“Hard skills” - “qattiq” malaka darajasiga ega bo’lish uchun muayyan kasb bo’yicha aniq bilim zarur bo’ladi va bu ko’nikmalarning mavjudligi imtihon o’tkazish orqali aniqlanadi.

“Soft skills” - “yumshoq” kompetensiyalar (ijodkorlik, muloqotga kirishishi layoqati, jamoada ishlash qobiliyati, qat’iyatlilik, tanqidiy fikrlash va h.k.) esa ko’p hollarda inson xarakteri va hayotiy tajribasiga bevosita bog’liq bo’lganligi sababli shaxsiy fazilat, xislat, qobiliyat sifatida ham talqin etiladi.

Mazmuniga ko’ra “Hard skills” kompetensiyalar ta’lim tizimidagi maxsus (kasbiy), “Soft skills” kompetensiyalar esa ta’lim tizimidagi tayanch kompetensiyalarni anglatadi.

XXI asrga qadar ta’lim tizimida yoshlarga asosan “hard skills” – “qattiq” malaka darajasini berishga e’tibor qaratib kelindi. Ya’ni, muayyan kasbni puxta egallash, uning sir-asrorlarini to’liq o’zlashtirish – shaxsning yetuk mutaxassis ekanligini belgilovchi asosiy faktor sifatida qayd etilgan.

XXI asr pedagogikasi esa zamonaviy dunyoda bu xislatlarning yetarli emasligi, endilikda tafakkurni rivojlantirish, kreativ makon, muhit, kreativ shaxs, kreativ mahsulot yaratishga bo’lgan ehtiyoj asosida ish tutish lozimligini uqtirmoqda.

Pedagog olim Musurmonova (2020) yaratgan darsligida kasbiy kompetensiyalar, pedagogning kasbiy kompetensiyalari, fanlar bo’yicha umumiy fanlar bo’yicha maxsus kompetensiyalar, ularning tasnif va ta’riflari, ularni ta’lim ishtirokchilarida shakllantirish bosqichlari va pedagog kasbiy kompetentligi yo’nalishlarini asoslab bergan. Darslikda jahon ta’lim amaliyotida keltirib o’tilgan quyidagi muhim kompetensiyalar belgilab berilgan:

- turli axborot manbalari, shu jumladan, ta’lim muassasasidan tashqaridagi axborot manbalaridan bilimlarni mustaqil o’zlashtirishga asoslangan *bilish faoliyati sohasidagi kompetensiyalar*;

- *ijtimoiy faoliyat sohasidagi kompetensiyalar* (fuqaro, saylovchi, ijtimoiy guruh, jamoa a’zosi rolini bajarish);

- *mehnat faoliyati sohasidagi kompetensiyalar* (mehnat bozoridagi holatni tahlil etish va undan foydalanish, o’zining kasbiy imkoniyatlarini, o’zini o’zi uyushtirish ko’nikmalarini baholash va takomillashtirish);

- *maishiy sohadagi kompetensiyalar* (oilaviy hayot aspektlarini, salomatlikni saqlash va mustahkamlashni ham qamrab oladi);

- *madaniy faoliyat sohasidagi kompetensiyalar* (shaxsning ma’naviy va madaniy jihatdan boyishi uchun vaqtdan unumli foydalanish).

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytganda, oliy ta’limda kredit-modul tizimiga o’tish va ushbu tizim doirasida o’qish jarayonida mustaqil ta’limga keng o’rin berish talabalarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishda asosiy omil hisoblanadi. Talabalarning mustaqil faoliyat olib borishi ularning har tomonlama yetuk va raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllanishiga samarali ta’sir ko’rsatadi.

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda quyidagi xulosa va takliflarni keltiramiz:

Birinchidan, kompetensiya – bu shaxsning muayyan soha bo’yicha sifatli va samarali faoliyat olib borishi uchun zarur bilim va ko’nikmalar majmuasini anglatadi, kompetentlik esa ushbu ko’nikmalarni egallash darajasini, ya’ni ulardan samarali foydalanish qobiliyatini ko’rsatadi.

Ikkinchidan, adabiyotlar tahlili shuni ko’rsatadiki, kompetensiya va kompetentlik tushunchalariga umumiy holda aniqliklar kiritilgan bo’lsa-da, tadqiqotchilar tomonidan ular bir xil yondashuvda tahlil qilinmagan. Bu esa zamonaviy shaxs ko’nikmalariga qo’yilayotgan talablardan kelib chiqib, kompetensiyalarni chuqurroq o’rganish, ularni klassifikatsiyalash va rivojlantirish usullarini ishlab chiqish zarurligini ko’rsatadi.

Uchinchidan, mamlakatimiz ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollari, jamiyatning zamonaviy ehtiyojlari hamda fan, madaniyat, texnika va texnologiyalarning yutuqlaridan kelib

chiqib, yangi jamiyatni yaratuvchi talabalarda ijodkorlik va izlanuvchanlikni rivojlantirish, nostandart vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qila olish, turli jarayonlarni tahlil qilish va baholash, ta'lim olish va tadqiqotchilik faoliyatini olib borish, xorijiy tillar va kompyuter texnologiyalaridan samarali foydalanish kabi aqliy va amaliy salohiyatlarni shakllantirish zarur. Shu bois, talabalarining mustaqil faoliyatini samarali tashkil etish va ularning muhim kompetensiyalarini rivojlantirishni ta'minlaydigan pedagogik metodika yaratish muhim vazifa hisoblanadi.

To'rtinchidan, kreativ kompetensiyalarning sifatlari va ularni rivojlantirishga oid tadqiqotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, talabalarda kreativlikni rivojlantirish zaruriyati, zaruriy komponentlar va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, shuningdek, kreativlikni shakllantirish va rivojlantirish usullari hamda vositalari masalalari to'liq yoritilmagan..

Beshinchidan, tahlil va ilmiy izlanishlar natijasida talabalaridagi kreativ kompetensiyalarning o'zaro bog'liq komponentlari aniqlab berildi. Shuningdek, ta'limning kredit-modul tizimida talabalarining mustaqil ishlashi va kreativ fikrlashini samarali tashkil etish zarurligi ham ko'rsatildi.

Adabiyotlar/ Лумепамыпа / Reference:

Muslimov N.A va boshqalar. (2015) *Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. O'quv-metodik qo'llanma*. – T.: "Sano-standart", –120 b.

Muslimov N.A., Ishmuxamedov R.J., To'rayev A.B. (2021) *"Pedagogning kasbiy professionalligini oshirish" moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua*. –T., –108.

Musurmonova O. (2020) *Umumiy pedagogika. Qism I: darslik / O.Musurmonova [va boshq.]. - Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi*, - 376 b.

Raximov Z. T. (2019) *Ta'lim jarayeni samaradorligini ta'minlashda pedagogik kreativlik va uning zaruriyati //Sovremennoye obrazovaniye (Uzbekistan)*. – №. 8 (81). – S. 3-9.

Shuxratovna A. S. (2025) *Interfaol ta'lim metodlari asosida talabalarni mustaqil ishlashini tashkil etish yo'llari //pedagogik islohotlar va ularning yechimlari*. – T. 12. – №. 02. – S. 162-164.

Брякова И.Е. (2019) *Креативная компетентность педагога – новый вектор развития образования //Педагогический имидж*. – №. 3 (44).

Кашапова М.М., Киселевой Т.Г. (2013) *Креативность как ключевая компетентность педагога. Монография / Под ред. проф. М.М. Кашапова, доц. Т.Г. Киселевой. Ярослав: ИПК «Индиго»*, – 392 с.

Лойко А.И. (2015) *Формирование навыков креативного мышления у студентов при изучении философии, логики: конспект лекций для студентов всех специальностей / А. И. Лойко [и др.]; под общ. ред. А. И. Лойко*. – Минск: БНТУ, – 80 с.